

ISSN 0134-2231

1  
2014

# XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

**PUBLIC EDUCATION**  
SCIENTIFIC-METHODICAL MAGAZINE  
MINISTRIES OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

[www.xtj.uz](http://www.xtj.uz)



---

Jo'rabek Tursunov. Mehnat ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik shartlari .....	74
--	----

### **TA'LIMDA MENEJMENT**

---

Shahnoza Qosimova. Ta'lim muassasasida boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari ...	78
Erkin Yoziyev. Xodimlar tipologiyasini bilish – samarali boshqaruvning muhim omili .....	83

### **PSIXOLOGIYA**

---

Dilnoza Narzikulova. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etish algoritmi .....	88
Gulnora Ziyaviddinova. O'quv faoliyati motivatsiyasi – maktabga ilk qadam .....	93
Jo'ra Yo'ldoshev, Dildora Pulatova. Ta'lim tizimida qiziqtirish – sifat va samaradorlik omili .....	98

### **MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH**

---

Dilafro'z Xidoyatova. Malaka oshirish jarayonini takomillashtirishda interfaol usullar .....	101
Nargiza Hoshimova. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida innovatsion faoliyat .....	106

### **ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ**

---

Нилуфар Сайдалиходжаева. Система правового воспитания учащихся старших классов .....	109
Озода Абдуллаева. Усовершенствование процесса подготовки студентов к педагогической деятельности .....	113
Лола Акрамова. Интеллект-карты как средство повышения качества чтения лекций .....	117
Елена Наумова, Кибриё Хасанова. Формирование духовно-нравственных качеств школьников .....	121
Гулноза Сабилова. Сопоставление местоимений английского и узбекского языков и явление интерференции .....	125

### **СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ**

---

Рисбой Джураев. Технология мультимедийного обучения .....	131
---	-----

### **ВОПРОСЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

---

Жамила Асаматдинова. Нравственно-эстетический потенциал содержания внеучебных занятий по циклу "познай человека" .....	137
Гульчехра Юлдашева. Роль дошкольного образования в подготовке детей к обучению в школе .....	141

**Dilafro'z XIDOYATOVA,**  
A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI  
katta o'qituvchisi

## MALAKA OSHIRISH JARAYONINI TAKOMILLASH- TIRISHDA INTERFAOL USULLAR

### Annotatsiya

Maqolada malaka oshirish jarayonida pedagog xodimlarni interfaol usullardan foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonida ta'lim berish shakllari, turlari va ta'lim jarayonida foydalaniladigan ta'lim berish metodlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada interfaol metodlar ta'lim jarayonini faollashtirish, motivatsiyalash va o'zlashtirish jarayonini rivojlantirish vositasi ekanligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy malaka, pedagog kadrlar, pedagogik malaka, malaka oshirish jarayoni, interfaol metodlar, interfaol metodlardan foydalanish, ijodiy yondashuv, o'quv faollik.

В статье описана система формирования у учителей умений и навыков использования интерактивных методов обучения, освещены формы, виды и методы обучения этим умениям и навыкам в процессе повышения квалификации; раскрыта сущность интерактивных методов обучения как средства стимулирования познавательной деятельности, способа повышения интереса обучаемых к учению.

**Ключевые слова:** профессиональные навыки, педагогические кадры, педагогические навыки, процесс повышения квалификации, интерактивные методы, использование интерактивных методов, творческий подход, учебная активность.

In this article a system of formation in teachers' skills and habits of using interactive teaching methods in the process of retraining have been analyzed, views and methods of training of indicated skills in the process of retraining of the teachers. Here it is explained the essence of interactive methods, as a mean of stimulation of cognitive activity, means of increasing students' interest to education.

**Key words:** professional skills, pedagogic personnel, pedagogic skills, retraining process, interactive methods, using interactive methods, creative approach, class activity.

**M**amlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshishi kadrlar salohiyatiga, bilimi va o'z kasbini mukammal egallashiga bog'liq. Bugungi kunda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida mukammal, zamonaviy vositalar asosida tashkil etilgan interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara bermoqda.

Malaka oshirish jarayonini takomillashtirishda interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik asoslarini yaratishning dolzarbligi quyidagilarda o'z aksini topadi:

**birinchidan,** malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlarida o'tkaziladigan kurslarni talabga ko'ra maqsadli, mavzuli, muammoli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida va innovatsion texnologiyalardan foydalanilgan holda tashkil qilish;

**ikkinchidan,** o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida interfaol usullarni o'rgatish bo'yicha 3 – 5 kunlik qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish;

**uchinchidan,** malaka oshirish, asosan, maktabda shaxsiy dastur asosida bo'lishining afzalliklarini o'qituvchilarga tushuntirish va bu sohadagi ilg'or tajribalarni keng joriy etish.


Shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil qilish shakllari turlicha bo'lib, ulardan ta'lim oluvchilarning soniga nisbatan belgilanadigan ta'lim shakllari quyidagicha (1-jadval) tasniflanadi:

- yakka tartibda o'qitish-o'qish (bir kishi). Bu yerda o'qitish-o'qish iborasini interfaol mashg'ulotda o'quvchini o'qituvchi o'qitish bilan birga, uning o'zi ham o'qib bilim olishi amalga oshirilishini ifodalash uchun qo'llanilmoqda;
- juft tartibda o'qitish-o'qish (ikki kishi);
- kichik guruhda o'qitish-o'qish (uchtadan beshtagacha kishi);
- katta guruhda o'qitish-o'qish (oltitadan to'qqiztagacha kishi);
- jamoaviy tartibda o'qitish-o'qish (bitta akademik guruh);
- ommaviy (oqim) tartibda o'qitish-o'qish (bir nechta akademik guruhlarning birlashuvi asosida olib boriladigan o'quv jarayon).

1-jadval

	O'quvchilar soni	Ta'lim shakli
Bitta akademik guruh (30 ta o'quvchi)	1	Yakka tartib
	2	Juftlik
	3-5	Kichik guruh
	6-9	Katta guruh
	Bitta akademik guruh	Jamoa
	Bir nechta akademik guruh	Ommaviy

### Interfaol mashg'ulotlar jarayonini tashkil qilish shakllari



1-rasm.

Interfaol mashg'ulotlarni tashkil qilishda ta'lim jarayoni shakllari bilan birga ta'lim berish turlari ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, malaka oshirish jarayonida, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ham tegishli o'qitish turlaridan foydalaniladi. Ammo ayrim o'qituvchilar o'qitish shakllarini o'qitish turlaridan, ba'zan esa, metodlardan ham farqlay olmasliklari kuzatilmoqda. Bu esa, keyinchalik mashg'ulotlarni to'g'ri tahlil qilishga yetarlicha imkoniyat bermaydi. Pedagogik, metodik va didaktik adabiyotlarni o'rganish va ilmiy izlanishlar natijasida respublikamizda keng qo'llanilayotgan o'qitish turlarining tasnifi quyidagicha aks ettirilgan:

O'qitish turi
Axborot kommunikatsiya texnologiyala
Muammoli ta'
O'yinli (ta'lim)
Loyihali
Evristik (evrika – "heurisko" topa ma'nosini ang
Kreativ (lotincha- yaratish, ijod ma'nosini ang

Malaka oshirish usullari yordamida interfaol. Quyida  
 1. Passiv (e'takchi bo'lish o'qituvchining b'iyotlar asosida tinglovchilarda maydi. Bu o'qituvchi Ta'lim amaliy xarakter kas  
 2. Faol (ichki mustaqil bajaradigan mustaqil ta'lim o'qituvchi bilan o

ardan ta'lim  
-jadval) tas-

sini interfaol  
o bilim olishi

ing birlashuvi

1-jadval


2-jadval


O'qitish turi	Kechadigan jarayon	O'qituvchining vazifasi
Axborot kommunikatsiya texnologiyalar	Mavzuga mos turli axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida (televizor, DVD, magnitofon, kompyuter, proyektor, multimediali doska, interfaol doska va b.) darsni tashkil etish.	Tashkilotchi va ma'lumotni yetkazib beruvchi vazifasini bajaradi
Muammoli ta'lim	O'qituvchi va tinglovchi hamkorligida muammoli vaziyat yaratiladi va aniq ta'limiy maqsad qo'yiladi. Tinglovchilar bu muammoni o'zlariga hal qilsalar-da, biroq o'qituvchi ularni maqsad sari yo'naltiradi.	Yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi
O'yinli (ta'limiy)	O'qituvchi mashg'ulot mavzusiga qarab turli o'yinli metodlardan foydalanib, darsni tashkil etadi.	Kuzatuvchi vazifasini bajaradi
Loyihali	O'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan, algoritmlangan, tizimlangan va aniqlik bilan rejalashtirilgan jarayonni shu rejadan chiqmasdan o'qituvchi bilan o'quvchilar birgalikda bajaradigan jarayon.	Loyihali o'qitishda boshqaruvchi vazifasini bajaradi
Evristik (evrika – lotinch "heurisko" topaman, ma'nosini anglatadi)	O'qituvchi o'zi tomonidan berilgan vazifaga aniq yechim qo'ymaydi, o'quvchilar qo'yilgan muammoni o'z fikrlash doiralariidan kelib chiqib yechadilar. Bunda yangi kashfiyotlar, yechimlar yoki g'oyalar kelib chiqishi kutiladi.	Ekspert vazifasini bajaradi
Kreativ (lotincha- "creatio" yaratish, ijod qilish ma'nosini anglatadi)	O'quvchida ijodkorlikni va tadqiqotchilikni shakllantirishga qaratilgan jarayon.	O'qituvchi yordamchi va maslahatchi vazifasida turadi

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning materiallarni o'zlashtirishlari bir necha usullar yordamida tashkil etilishi mumkin. Masalan, passiv (ekstrafaol), faol, introfaol, interfaol. Quyida ana shu ta'lim turlari va ularning afzalliklarini ko'rib chiqamiz:

1. Passiv (ekstrafaol – tashqaridan faol) ta'lim, asosan, mashg'ulotda o'qituvchining yetakchi bo'lishiga asoslanib, tinglovchilar o'rganishi talab etiladigan nazariy bilimlarni o'qituvchining berayotgan axboroti, u tomonidan uzatilayotgan ma'lumot hamda adabiyotlar asosida o'zlashtiriladi. Bunday ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik kuzatilmaydi, tinglovchilarda mashg'ulotga nisbatan qiziqish va rag'bat (motiv) deyarli mavjud bo'lmaydi. Bu o'qituvchi tinglovchilarga quyidagi sxema tarzida ta'sir ko'rsatadi (2-rasm).

Ta'lim amaliyotida ekstrafaol ta'lim uzoq yillardan buyon qo'llanilib kelinadi va an'ana-viy xarakter kasb etgan.

2. Faol (ichki) ta'lim – bunda tinglovchi mustaqil ish hamda berilgan vazifalarini mustaqil bajaradi, ijodiy izlanadi va mavjud bilimlarini o'zlashtiradi. Garchi tinglovchilarning mustaqil ta'lim olishlari uchun qulay imkoniyat yaratilgan bo'lsa-da, biroq ularning o'qituvchi bilan o'zaro hamkorliklari ko'zga tashlanmaydi (3-rasm).




2-rasm. Ta'limning passiv (ekstrafaol) shakli



3-rasm. Ta'limning faol (ichki) shakli

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Zero, tinglovchilarning mustaqil bilim olishlari qay darajada to'g'ri tashkil etilayotganligini kuzatish, nazorat qilib borish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, zarur o'rinlarda pedagogik va metodik maslahatlarni berish ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omildir.

3. Introfaol (tashqariga faol) ta'limda, asosan, tinglovchilarning "Mening fikrim", "Men kimgadir ta'lim berishim mumkin" mazmunidagi yondashuvlari kuzatiladi. Bunda o'qituvchi – tashkilotchi, boshqaruvchi, ekspert va kuzatuvchi vazifasini bajaradi, xolos. U hatto ayrim holatlarda "tinglovchi"ga ham aylanib qolishi mumkin (4-rasm).



4-rasm. Ta'limning introfaol (tashqariga) shakli

4. Interfaol (o'zaro faol) ta'limda o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasida, shuningdek, tinglovchilar o'rtasida ham o'zaro hamkorlik, hamfikrlik, hamjihatlik yuzaga keladi. Bu hamkorlik o'quv materialini o'zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qilib, shu bilan birga, muammoli vaziyatlarning ijobiy hal etilishini ta'minlabgina qolmay, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida o'zaro psixologik yaqinlik va birlikni ham yuzaga keltiradi. O'qituvchi va tinglovchilarning birgalikdagi harakatlari, o'zaro ta'sirlari va hamkorliklari ta'lim jarayonida qo'lga kiritiluvchi barcha muvaffaqiyatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi (5-rasm).

"Interfaol"  
"akt" – faol  
anglatadi.  
lovchi oras  
Interfaol m  
xulosalarin  
Ular ma'lum  
aylanadi.  
Interfaol  
munosabat  
to'g'risidag  
shaklida na  
Interfaol  
sabatda bo  
– o'qituv  
qaytarayot  
– tinglov  
– kichik  
– kattal  
o'ynash, d  
– tinglov  
bajarish ja  
– taklif  
biror tashk  
– ayrim  
slayd, kinc  
Xulosalar  
o'zaro ham  
bilimlarini

1. Гуз  
зователь  
2. Jo'  
– 88 b.  
3. Yo'  
– T.:



5-rasm. Ta'lim berishning interfaol shakli

"Interfaol" so'zi (ruscha "interaktiv") ingliz tilidan olingan bo'lib, ("inter" – o'zaro, "akt" – faol harakat, faollik, ta'sirchanlik) o'zaro harakat, birgalikdagi faoliyat ma'nolarini anglatadi. O'zaro, birgalikdagi faoliyat jarayonida o'qituvchi-tinglovchi, tinglovchi-tinglovchi orasida ta'lim maqsadlariga erishish yo'lida tashkil etiluvchi hamkorlik kuzatiladi. Interfaol metodlar yordamida uyushtiriladigan mashg'ulotlarda tinglovchilar o'z fikr, xulosalarini bir-birlariga o'rgatadilar hamda boshqalarning fikr, xulosalarini o'rganadilar. Ular ma'lum darajada o'qituvchiga, guruh esa, yagona, o'zaro hamkor, hamjihat jamoaga aylanadi.

Interfaol ta'limda o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro munosabat, odatda, u yoki bu muammoni qay tarzda hal etish, qarorlar qabul qilish to'g'risidagi takliflarning ilgari surilishi va yakuniy qaror qabul qilish bo'yicha munozara shaklida namoyon bo'ladi.

Interfaol ta'lim jarayonida tinglovchilar quyidagi muloqot jarayonlarida o'zaro munosabatda bo'ladilar:

- o'qituvchi bilan (ya'ni tinglovchi o'qituvchi tomonidan berilgan savolga javob qaytarayotganda);
- tinglovchilar bilan (juftlik asosida ishlash);
- kichik (3–5 nafar tinglovchidan iborat) guruhlarning a'zolari bilan;
- katta (6–9 nafar tinglovchidan iborat) guruhlarning a'zolari bilan (rolli o'yinlarni o'ynash, debat, davra suhbat, mushoira, munozara va boshqalarda ishtirok etish);
- tinglovchilar jamoalari bilan (kichik ilmiy izlanishlarni olib borish, ijtimoiy topshiriqlarni bajarish jarayonida);
- taklif qilingan shaxslar bilan (tinglovchilar ma'lum sohada faoliyat yuritayotgan biror tashkilot yoki jamoa a'zolari bilan muloqot qilishlari mumkin);
- ayrim texnik vositalar (masalan, kompyuter, tele va audio apparat, video kamera, slayd, kinoproyektorlar va hokazolar).

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, interfaol metodlar o'qituvchi va tinglovchi o'rtasida o'zaro hamkorlik, hamjihatlilikni yuzaga keltiradi. Bu esa tinglovchining nazariy va amaliy bilimlarini boyitibgina qolmay, turli muammoli vaziyatlarni hal etishni ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гузиев В.В. Можно ли построить полностью детерминированный образовательный процесс?// Школьные технологии. – 2000. – С. 252– 266.
2. Jo'rayev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – T.: "Sano-standart" MCHJ, 2010. – 88 b.
3. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'llanma. – T.: "O'qituvchi", 2004. – 104 b.